

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEVA KOMILA AXROROVNA

**VASHINGTON IRVING IJODIDA ISLOMIY MOTIVLARNING
G‘OYAVIY POETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

UO‘K: 894.375:820(73).04(021)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Fayziyeva Komila Axrorovna

Washington Irving ijodida islomiy motivlarning g‘oyaviy poetik xususiyatlari..... 3

Fayzieva Komila Akhrorovna

Ideological poetic features of Islamic motives in the creative works of Washington Irving 21

Файзиева Комила Ахроровна

Идейно-поэтические особенности исламских мотивов в творчестве Вашингтона Ирвинга 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEVA KOMILA AXROROVNA

**VASHINGTON IRVING IJODIDA ISLOMIY MOTIVLARNING
G‘OYAVIY POETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.4.PhD/Fil2128 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Qarshibayeva Uljan Davirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Tohirova Nargiza Isakovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil « 04 » may soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (411 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 13 » aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil « 13 » aprel daqi 24-01 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ijodkorlar orasidagi adabiy aloqalar va adabiy ta'sir, ushbu jarayonning rivojlanish tarixi, taraqqiyot xususiyatlari va poetik qonuniyatlarini aniqlash, muayyan yozuvchi ijodining dunyo adabiyotidagi g'oyaviy, badiiy mavqeyi va qiymatini belgilash, badiiy sintez, mushtaraklik va individual mahorat qirralarini ochish, muallif hamda badiiy asar kitobxon munosabatlarini, adib ijodidagi ijtimoiy-ruhiy omillar, uni qurshagan muhit, hayotga ijtimoiy-madaniy munosabati, axloqiy qarashlari tasviri masalalari tadqiqiga qiziqish yanada kuchaydi. Amerikalik adib Vashington Irving ijodini adabiy ta'sir aspektida qiyosan o'rganish, uning asarlarida islomiy motivlarning badiiy voqelanishi va unda namoyon bo'lgan adib mahorati muammosini tadqiq etish, uning tarbiyaviy, sentimental, falsafiy xarakterini belgilash, badiiy-adabiy tafakkurini, ma'naviy-axloqiy negizlarini, umuminsoniy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida Sharq adiblari ijodining G'arb adabiyotiga, asarlari, shuningdek, qahramonlari taqdiriga, badiiy asar syujetiga ta'siri, Sharq va G'arb voqeligining tavsifi, Sharq va islomiy motivlar tasnifi masalalari borasida keng ko'lamlı tadqiqotlarda atroflicha tahlil etilgan. Shu sababli ma'lum bir davr sharoitida qalam tebratgan yozuvchining ijtimoiy muhiti va milliy ma'naviyati, Amerika badiiy asarlarida islomiy g'oya orqali inson olamini, qarashlarini yoritish mahoratini o'rganish, Sharq va G'arb adabiy an'analari sintezini muayyan ijodkorlar asarlari misolida adabiy ta'sir va tipologik aspektda tekshirish, jahon adabiyotshunosligida ulug' adiblar asarlarining o'zaro ta'sirini tadqiq etish, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasining ilmiy talqin doirasini kengaytirish, tarixiy asarlarda badiiy zamon konsepsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida o'tgan asrlardagi o'zbek adiblari asarlari motivlari ijodidagi yangi ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlar asosida Sharq va G'arb adabiy an'analari hamda tafakkurining murakkab sintezi sifatida o'rganilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Istiqloлга qadar XIX-asr romantizm adabiyoti namunalari, adiblari ijodi g'oyaviy-badiiy jihatlardan keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, bugungi adabiyotshunoslikdagi yangi tahlil metodlariga tayangan holda Amerika romantizm yo'nalishida islomiy motivlar ta'sirida yaratilgan badiiy ijodni alohida o'rganish zaruriy vazifalardan biri qilib belgilandi. Shu jihatdan, "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim".¹ Ushbu masalalarning ustuvor strategik yo'nalish sifatida belgilab qo'yilishi adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalarida ham ilmiy izlanishlar ko'lami hamda ko'rsatkichini yanada ko'tarishga keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, XIX-asr Amerika adabiyoti namoyandasi Vashington Irving ijodida islomiy motivlar ta'siri masalasini atroflicha

¹ Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanalı marosimdagi nutqi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019, 22 oktyabr. – № 218 (7448). – B. 1.

ilmiy asosda tekshirish tahlilga tortish jahon adabiy-ilmiy jamoatchiligini xabardor etish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida XIX-asr Amerika adabiyoti tadqiqiga bag'ishlangan salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularda islomiy motivlar mavzusi yetarlicha tadqiq etilmagan. Jumladan, xorijiy olimlar S.J.Fakahani, M.S.Steven, H.M.Losxki va B.Maykllar² tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda 1848-yil Nyu-York tarixini Irving tasvirida, "Algambra" asari fonida manbalar va motivlarni hamda xalq tarixini adabiy fonda asoslab o'rganish masalasiga e'tibor qaratilgan. Rus olimlaridan Yu.V.Barabanova, Ye.V.Mixaylova, S.V.Tyurin, Ye.M.Apenkolar³ning tadqiqotlarida Amerika romantik novellalari tarixi va janr nazariyasi, XIX-asrning 20-30-yillarida Vashington Irving Rossiyaga ta'siri masalasi, V.Irving romantik to'plamlari "Eskizlar kitobi"da janr va an'analar masalalari o'rganilgan.

² Fakahani, Susan Jamil. "W.Irving The Alhambra: Background, Sources and Motifs". PhD. diss. Florida State University, 1988.; Stevens, Michael S., "Spanish Orientalism: Washington Irving and the Romance of the Moors". Dissertation, Georgia State University, 2007.; Loschky, Helen M. "Washington Irving Knickerbocker's History of New York: Folk History as Literary Form". PhD, diss., Brown University, 1970.; Black, Michael. "Washington Irving A History of New York with Emphasis on the 1848 Revision", PhD. diss., Columbia University, 1967.

³ Барабанова Ю.В. Романтические сборники Вашингтона Ирвинга. Автореферат канд. дисс. – СПб, 1995.; Михайлова Е.В. «Книга эскизов» Вашингтона Ирвинга (проблематика, жанр, традиция). Автореферат канд. дисс. – СПб, 1994.; Тюрин С.В. Рецепция Вашингтона Ирвинга в России 20-30-х годов XIX века. Автореферат канд. дисс. – Ленинград, 1979. – С. 20.; Апенко Е.М. Американская романтическая новелла (к вопросу истории и теории жанра). Автореферат канд. дисс. – Ленинград, 1979. – С. 12.

O‘zbek olimlaridan S.Jabborov, P.A.Qurbonov va A.Mahmudov⁴ning ishlarida Bayron ijodida Sharq va sharqona motivlar tavsifi, G.E.Lessing ijodida Sharq va G‘arb voqeligining tavsifi o‘rganilgan.

Richard Cheyzning “Amerikada roman va romanchilik an‘analari”, Marius Byulining “Ekssentrik obzor (klassik Amerika romanchiligida shakl masalasi)” fundamental tadqiqotlari mavjud.

Dissertatsiya ishi uchun asos bo‘lgan Vashington Irving ijodiga bag‘ishlab bir necha monografiya va risolalar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yaratilgani ma‘lum.

Umuman, mazkur dissertatsiya Vashington Irving ijodidagi islomiy motivlarning g‘oyaviy poetik xususiyatlarini o‘rganish nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universitetining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Vashington Irving ijodida islomiy motivlarning g‘oyaviy poetik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIX-asr Amerika romantizm adabiyotining tug‘ilishi va shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan ma‘rifatchilar g‘oyalari, ingliz romantiklari asarlaridagi tarixiylik va badiiylik uyg‘unligidagi cheksiz hayotiy manzaralar aks etgan yozuvchilar va ularning ijod namunalarini aniqlash;

G‘arb adiblari Fransua-Mari Arue (Volter) va Jonaton Svift o‘z asarlarida fantastik voqealarni haqiqatan bo‘lganday tasvirlashga bo‘lgan urinishlarini ochib berish;

Vashington Irving badiiy va ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mavzularda ijod qilishiga ta‘sir etgan manbalarni asoslash;

Vashington Irving “Muhammad hayoti” romanida ilk musulmonlarning birinchi hijrati bo‘lgan safarga Usmon ibn Affon yetakchi bo‘lgani va payg‘ambarimiz hayotiga suiqasdlar va fojialarga sabab bo‘lgan voqealarning tarixiyli va badiiy tasvirini tahlil qilish;

Vashington Irving “Rip van Vinkl” novellasida 20-yil davomida bir qishloq, jamiyat, xalq hayotida yuz bergan muhim, ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar tasvirini dalillash;

Vashington Irvingning “Al-Hamro” turkumidagi “Mavrning vasiyati afsonasi” (“The Legend of the Moor’s Legacy”) novellasining syujetida “Al-Hamro” saroyidagi real voqealarni ko‘rsatish orqali xronotop masalasini isbotlash;

⁴ Jabborov S., I.V.Gyotening – G‘arbu-Sharq devoni // Matn. Talqin. Tarjima. Filol.fan. nomzodi ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 1995. – B. 168; Qurbonov P. Bayron ijodida Sharq va sharqona motivlar tavsifi (qiyos va tarjima): Filol.fan. bo‘yicha fals. doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – B. 50; Mahmudov A.; G.E.Lessing ijodida Sharq va G‘arb voqeligining tavsifi (qiyos va tarjima). Filol.fanl.bo‘yicha fals. doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2020. – B. 60; Ixtiyarov A.A. “Martin Iden” va “Sarob” romanlaridagi tipologik oxshashliklar va oziga xoslik – Adabiyotshunoslik (ingliz) – Buxoro, 2014. – B. 91.

Tadqiqotning obyektini sifatida Washington Irvingning “Muhammad hayoti” va “Al-Hamro” turkumi hamda Qur’oni karim oyatlarini tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Amerika adabiyotida XIX-asrda shakllangan yirik yo‘nalishlardan biri romantizm davri ijodkori Washington Irving asarlaridagi islomiy motivlar ta’siri tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, germevtik, biografik, tavsiflash, kognitiv-diskursiv metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Amerika romantizm adabiyotining tug‘ilishi va shakllanishiga fransuz ma’rifatchilari, ingliz romantiklari asarlari qatorida islomiy motivlardagi cheksiz hayotiy manzaralar ijobiy ta’sir ko‘rsatib Washington Irvingning badiiy mahoratiga xos takomil belgilari, individuallik hamda umumiylik, yaqinlik va mushtaraklik qirralari aniqlangan;

Washington Irving ijodida islomiy motivlarning g‘oyaviy poetik xususiyatlari muallif tafakkuri, individual o‘ziga xos uslubi, badiiy mahorati, dunyo poetikasini talqin etishidagi badiiy psixologizm, badiiy-estetik asoslari, shakl va mazmun yaxlitligi tamoyillari orqali namoyon bo‘lishi isbotlangan;

Washington Irvingning “Al-Hamro” turkumidagi “Mavrning vasiyati afsonasi” (“The Legend of the Moor’s Legacy”), “Muhammad hayoti” asarlarida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligi, o‘tkir syujetli sarguzasht roman ekanligi, dramatismga boy bo‘lgani, ilk musulmonlarning birinchi hijrati bo‘lgan safaridagi fojiviy voqealar badiiy, tarixiy real tafsilotlar asosida voqelanganligi asoslangan;

Washington Irving ijodiy davrining yuksalish, kulminatsiya va pasayish bosqichlari real zamon va makon universumida islomiy motivlarning g‘oyaviy poetik elementlari ijtimoiy-siyosiy holat, yozuvchi shaxsiy dunyoqarashidagi o‘zgarishlar, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to‘qnashuvi kabi omillar ta’sirida konstruktiv funksiyalari vositasida ifodalanganligi dalillangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari. Washington Irvingning romantik, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mavzulardagi asarlari tahlili va tadqiqi bugungi kun yoshlari ilmiy dunyoqarashi va badiiy tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi, hamda buyuk amerikalik yozuvchi ijodidagi Amerika romantizm adabiyotiga xos ustun xususiyatlar adabiy meros sifatida jahon adabiyotiga ta’siri ochib berilgan;

Washington Irving ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri, xususan, uning romantik asarlarining tarixiylik va badiiylikning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilishi, qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar o‘zbek adabiyoti uchun eng muhim zaruriy ilmiy ma’lumot berishi, qiyosiy adabiyotshunoslik bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi, tarjima, adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

Ommaviy axborot vositalarida o‘zaro do‘stlik va adabiy aloqalarni mustahkamlash, hamda milliy adabiyotimiz rivojidadagi o‘rnini ko‘rsatish va targ‘ib qilishda manba bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo‘yilishi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik,

germenevtik, biografik, tavsiflash, kognitiv-diskursiv kabi usullar bilan asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya natijalaridan adabiy ta'sir muammolarini, yozuvchi uslubini, badiiy adabiyotning eng muhim yo'nalishlarini tashkil etadigan Amerika adabiyotini, romantizmning shakllanish masalasini yoritishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya faktik materiallari va ilmiy xulosalaridan bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Jahon adabiyoti" o'quv kurslari, o'rta ta'lim "Adabiyot" o'quv predmeti bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, Amerika adabiyoti tarixidan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Vashington Irvingning ijodida islomiy motivlarning g'oyaviy poetik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

Vashington Irving ijodida islomiy motivlarning g'oyaviy poetik xususiyatlari muallif tafakkuri, individual o'ziga xos uslubi, badiiy mahorati, dunyo poetikasini talqin etishidagi badiiy psixologizm, badiiy-estetik asoslari, shakl va mazmun yaxlitligi tamoyillari orqali namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 22-maydagi № 17.01/37-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida Vashington Irving ijodida islomiy motivlar ta'siri badiiy tahlili bilan bog'liq muammolar qiyosiy aspektda o'rganilib, yechimlari tavsiya qilingan;

Vashington Irving ijodiy davrining yuksalish, kulminatsiya va pasayish bosqichlari real zamon va makon universumida ijtimoiy-siyosiy holat, yozuvchi shaxsiy dunyoqarashidagi o'zgarishlar, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to'qnashuvi kabi omillar ta'sirida asarlarda hayot haqiqatlari lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligi oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2020-2021-yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Tempus dasturi oid xulosalardan 2020-2021-yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 2-martdagi № 605/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada XIX-asr Amerika romantizm davri adabiyotiga Sharq ijodkorlari ta'siri doirasini o'rganish uchun ishlab chiqilgan tavsiyalardan, o'quv jarayonini tashkil etishga va loyihalarni rivojlantirishga erishilgan;

Vashington Irvingning “Al-Hamro” turkumidagi “Mavrning vasiyati afsonasi” (“The Legend of the Moor’s Legacy”), “Muhammad hayoti” asarlarida tarixiylik va badiiylik uyg’unligi, o‘tkir syujetli sarguzasht roman ekanligi, dramatismga boy bo‘lgani, ilk musulmonlarning birinchi hijrati bo‘lgan safaridagi fojiviy voqealar badiiy, tarixiy, real tafsilotlar asosida voqelanganligi doir xulosalardan Qarshi teleradiokanalida “Nasaf TV” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qarshi teleradiokanalining 2022-yil 20-iyundagi 1/203-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotning Amerika romantizm adabiyotida Vashington Irving romanlari badiiy va ijtimoiy-siyosiy, axloqiy mavzularda yozilganligi haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalar ko‘rsatuv mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Umumiy hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Vashington Irving ijodining Amerika romantizm adabiyotiga qo‘shgan hissi**” deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tarkib topgan. Bob fasllarida Angliya mustamlakachiligi davrining badiiy adabiyotda aks etishi va Amerika romantizm adabiyotida falsafa va badiiy ijod mahsuli o‘rganilgan.

Ma’lumki, Amerika adabiyotida romantizm ruhi tug‘ilishida Yevropadan avvalroq kelib, quldorlarga qarshi kurashayotgan kuchlar va buyuk fransuz inqilobini keltirib chiqargan Jan-Jak Russo g‘oyalaridan ta’sirlangan adiblar, shoirlar, jurnalistlar, publitsistlar iste’dodli, insonparvar, taraqqiyparvar ijodkorlar kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Yevropa adabiyotiga nisbatan juda yosh bo‘lgan AQSh adabiyoti tez orada eski dunyo (Angliya, Germaniya, Fransiya) adabiyotidan o‘zib ketgani e’tirof qilindi. Herman Melvill (“Mobi Dik”), Harriet Bicher-Stou (“Tom tog‘aning kulbasi”), Jeyms Fenimor Kuper (“Iztopar”, “Josus”, Chingachkuk haqida 5 roman), Vashington Irving (“Rip van Vinkl”, “Annet Delabr”, “Arab munajjimi”, “Al-Hamro” turkumi, Edgar Po (“Asherlar uyi”, “Morella”, “Vaqt o‘rog‘i”), Genri

Toro (“Uolden”, “Fuqaro va davlat”), Ralf Emerson (“Tabiat”) asarlarini yozgan, yorqin siymolar tez orada jahon aro shuhrat qozondi.

Adabiy tanqid dahosi Vissarion Grigoryevich Belinskiy AQSh adabiyotida badiiylik, xarakterlar, ruhiy holatlar (psixologizm) kuchli ekani haqida yozdi. U avval Angliya romantizmining yetuk vakili Valter Skottning “Ivanhoe” (“Ayvenggo”) romanidagi qahramonning ma’shuqasi Rebekka bilan munosabatlaridagi dramatismni va chuqur psixologizmni maqtaydi: “Bu bir ajoyib kartina sifatida, ishq va dard bilan mast bo‘lgan o‘quvchining nigohiga bu kartina o‘zining chuqur foni bilan qanday cheksiz manzara ochadi”⁵. Shundan so‘ng Vissarion Grigoryevich Belinskiy Yevropadan Amerika sahrolariga va changalzor o‘rmonlariga kelib, bu joylarni qayta kashf etayotgan qahramonlarning xarakterlarini, psixologiyasini–ruhiy olamini chuqur ochgan Fenimor Kuperning badiiy mahoratini maqtaydi: “Kuperning “Sahroda yo‘l ko‘rsatuvchi” nomli asari ... dramatik romanning yuksak namunasidir. Umrining eng yaxshi yillarini Amerikaning katta, qalin o‘rmonlarida ... o‘tkazgan, ulug‘ tabiatning keng erkinligiga berilib, tangri yaratgan ulug‘ borliqning hashamatli sukunatida tangri bilan balandparvoz suhbat qurishni istagan, tabiati chuqur va qudratli ruhga ega bo‘lgan, arslon kabi mard bo‘lishiga qaramay nozik qalb egasi bo‘lgan odam hayot yo‘lida ayollik olamining go‘zal, latif bir namunasiga yo‘liqadi va asta-sekin ishq uning butun vujudini egallaydi”. Mashuqasi, Angliyadan yangi dunyoga kelgan kichik amaldorning qizi Mabel, otasining adyutanti bo‘lgan yosh harbiy yigit Jaspersni sevib qoladi. Bosh qahramon, o‘rmon arsloni Patfaynder raqibiga o‘z sevgilisini topshirishga ruhiy qudrati yetadi.

Inson qadr-qimmati, shaxs erkinligi, adolatli davlat boshqaruviga doir ijtimoiy-siyosiy adabiyot bilan jamoat arboblari Tomas Peyn, Tomas Jefferson, Benjamina Franklin shug‘ullandilar. Bu yozuvchi va davlat arboblari o‘tkir publitsistik maqola va murojaatlari bilan, Parlamentdagi nutqlari bilan yangi davlat boshqaruvida irqchilikka va quldorlikka qarshi kurashdilar. Inson qadri qora tanlilar uchun ham kerak, – dedilar.

Benjamina Franklin falsafiy asarlarida davlatga faqat yirik mulkdorlar, boylar rahbarlik qilishiga qarshi chiqadi. U ilm-fanni rivojlantirishni, ma’rifatchilikni, diniy bag‘rikenglikni, xalqaro tinch-totuvlikni quvvatlaydi. Ta’lim sohasida xalq ommasiga yo‘l ochadi. Mahalliy “yovvoyilar” qora tanlilar insonparvar ekanligini ta’kidlab, hindularda politsiya ham yo‘q, – deydi.

Angliya mustamlakachiligidan ozodlik uchun kurashda faol qatnashgan adabiyotning ikkinchi yorqin vakili Tomas Jefferson (1743-1826) “Mustaqillik deklaratsiyasi”ni yozgan va barcha asarlarida odam savdosiga, quldorlikka qarshi inson huquqlari uchun kurashgan. Tomas Jefferson inson boshqa insonlarni ekspluatatsiya qilishga, qul qilib ishlatishga haqli emas, – deydi. U Jan-Jak Russo g‘oyalaridan ilhomlanadi. Tomas Jefferson yozgan “Mustaqillik deklaratsiyasi” (“The Declaration of Independence”)da quyidagi gumanistik g‘oyalar bor: Biz mana bu haqiqatlar uchun kurashamiz: “Tangri barcha insonlarni teng qilib yaratgan va barcha insonlarga quyidagi huquqlarni ne’mat qilib bergan: yashash huquqi; ozod

⁵ Белинский В.Г. Поэзиянинг хил ва турларга бўлиниши. – Т.: “Ўздав нашр”, 1955. – Б. 158.

va baxtli yashash huquqi. Davlat, hukumat insonlarning shu huquqlarini himoya qilish uchun xalqning istagi bilan tashkil etilgan. Agar davlatning biror tuzumi mana shu maqsadlarga javob bermay, to'sqinlik qilsa, bunday davlat tuzumini yo'qotib, boshqasini o'rnatish kerak, toki yangi tuzum xalq uchun baxt-saodat keltirsin".⁶

Vashington Irving kabi mansabdor, elchilik xizmatida bo'lmagan Fenimor Kuper (1789-1951) bolalik chog'larida qishloq maktabida, so'ng Yel kollejida o'qidi. Otasi katta yer egasi, plantator-fermer serjahl Vilyam Kuper 16 yoshli o'g'lini 1806-yilda Yevropaga borayotgan "Stirling" kemasiga matroslikka berdi. F.Kuper yoshlik, yigitlik chog'larida dengiz flotida ishladi, dengizchilarning kemalarini ag'daruvchi bo'ron va dolg'alarda og'ir mehnatini ko'rdi. U Yevropa adabiy hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 7 yil Angliyada yashadi, shu yillarda u 7 ta katta romanlarini yozdi. Bu romanlari Amerikada bosilib chiqishi bilan dunyoning barcha tillariga tarjima qilindi. Nataniel Gotorn, Vashington Irving novellada, Fenimor Kuper va Herman Melvil romannavislikda xalqaro shuhrat qozonishdi.

Amerika romantiklari Vashington Irving, Genri Uodsvort Longfello, Ralph Waldo Emerson, Genri Devid Toro, Herman Melvill ham ozod inson haqida utopik g'oyalarni amalga oshirishda Fransua Rable va Jan-Jak Russo asarlaridan foydalangan.

Manbalarga qaraganda, XVIII-asrning ikkinchi yarmida (1776-1783) Amerika qit'asining shimolida Angliya mustamlakachilariga qarshi ozodlik kurashi (yetakchilari Jorj Vashington, Avraam Linkoln, Benjamin Franklin, Tomas Jefferson, Tomas Peyn va boshqalar) buyuk fransuz inqilobidan (1789-1795) avvalroq boshlangan.⁷ Unda ba'zi fransuz ziyolilari ham qatnashgan.

Amerika romantizmi ham Yevropa romantizmidan ta'sirlanib, adiblar o'z ijodlarida fantaziya, ruhiyatni ochish, sir saqlash, qo'rquv uyg'otish kabi holatlardan bosh qahramonlarning xarakterlarini ochish uchun foydalanadilar. Edgar Po "Vaqt o'rog'i" hikoyasida kuchugi bilan sayrga chiqqan nozik-nafis ayolning atrofni ko'zdan kechirish uchun minora soatidan boshini chiqarib, atrofni tomosha qilayotganida soat mili orqaga qaytmay, faqat oldinga yurgani uchun ayolning boshi uzilib tushganini hajviy ruhda tasvirlaydi. Edgar Allan Po amerikalik yozuvchi "Ligeyya", "Morella" hikoyalarida murakkab va sirli ruhiy holatlarni ko'rsatadi.⁸ Vashington Irving "Dolf Xayliger" novellasida real hayotiy badiiy detallar Gudzon daryosi va uni o'rab turgan tog'larning ulug'vor manzaralari bilan bir vaqtda sirli arvoah-ajina epizodlari tasviri qo'shib ketadi. "Uyqudagi pastlik" hikoyasida V.Irving qishloq maktabi o'qituvchisining bo'ydor va ozg'inligi, qosh-ko'zi, burni ko'rimsiz o'quvchisining ota-onasi bilan suhbatlashuvga borganida shirinso'zligi va ishtahasi karnayligi (uni o'rmondagi anakonda ilon kabi ko'p ovqatni o'ziga singdirgani) kabi salbiy hislatlari bilan bir vaqtda u darsdan keyin yuqori sinf o'quvchilariga qo'shib koptok o'ynab, kulib, hazil bilan bolalarni zeriktirmasligi, ularning uylariga borganida qiziqarli voqealarni aytib berishi, istagan o'smirlarga va qizlarga diniy duolarni jo'rlikda aytishni o'rgatishi kabi yaxshi hislatlarini ham

⁶ История американской литературы в 2-х томах. 1 – том. – Москва: «Просвещение», 1971. – С. 45–46.

⁷ История американской литературы в 2-х томах. 1 – том. – Москва: «Просвещение», 1971. – С. 35–46.

⁸ Эдгар Аллан По. Полное собрание рассказов. – Москва: «Наука», 1970. – С. 810.

tasvirlaydi. Yozuvchi bu adabiy qahramoni aqlli bo'lgani uchun uni doimo masxara qiluvchi raqibi bilan olishmaydi, o'zini vazmin tutishni, munosib javob aytishni ham biladi. Boshsiz chavandozdan juda qo'rquvini yozuvchi ham realizm, ham romantizm ruhida tasvirlaydi.⁹

Vashington Irving sevgi mavzusidagi "Annet Delabr" novellasida ko'ngil olamini, sevgilisini dengiz safarida yig'lab dom-daraksiz yo'qolib ketgan yigitni kutaverib, jinni bo'lib qolganini tasvirlashda so'z san'atidan foydalanuvchi so'z san'atkori sifatida emas, ruh san'atkori sifatida ish ko'rishini namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Vashington Irving ijodida realizm va romantizm uyg'unligi**" deb nomlangan bo'lib, ikki fasldan iborat. Bob fasllarida Romantizmning shakllanishi va Yevropa adiblarining Sharq madaniyatiga bo'lgan munosabati va Vashington Irving ijodida Andalusiya, arab-ispans madaniyati davrining badiiy tasviri tahlil qilingan. Yevropa va Amerikada Sharq hayoti va madaniyatiga qiziqish olimlar va shoirlarga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Olmon dahosi, "G'arb-u Sharq" devonining muqaddima qismlarida Gyote Yohan Volfgang — nemis yozuvchisi va mutafakkiri asosan Eron shoirlari Firdavsiy (vaf. 1030), Anvari (vaf. 1152), Nizomiy Ganjaviy (vaf. 1180), Jaloliddin Rumiy (vaf. 1262), Sa'diy Sheroziy (vaf. 1291), Hofiz Sheroziy (vaf. 1389), Jomiy (vaf. 1494) hayoti va ijodiga katta e'tibor beradi. Yo.V.Gyote Sulton Mahmud e'tiborini qozongan Firdavsiyning "Shohnoma"da o'tmishda qahramonliklar ko'rsatgan buyuk bahodirlarni madh etganini aytadi. U Jaloliddin Rumiy panteizmi (barcha olamlar Haq taoloning jamoli)ga e'tibor beradi. Yo.V.Gyote devonning kirish qismida hindlar dinini, butparastlikni qoralab, G'aznaviyni maqtaydi. U Sharq shoirlarining ijodini, poetikasini, falsafasini o'rganishda olmonlardan hech bir olim Faransuz adibi va faylasufi Jan-Pol Rixterga teng kelolmasligini ta'kidlaydi.¹⁰ Ishimizning avvalgi bobida adabiy tanqid dahosi V.G.Belinskiyning poeziyada lirizmning ahamiyatini Jan-Pol Rixter yaxshi tushungani haqidagi fikrini keltirgan edik.

Vashington Irving "Rip van Vinkl" novellaning boshlanish qismida adabiy qahramon yashagan muhitni (xronotopni), Ripning xarakterini realistik ruhdagi detallar tafsilotlari bilan tasvirlaydi. Ripning xotini uni uy-ro'zg'or ishlariga qarashmagani uchun doimo koyishidan bilamizki, bu oilada qullar mehnatidan foydalanilmaydi. Masalan, "One autumn day, Rip goes into the mountains with his dog Wolf. He hears someone shout his name and turns round to see a little man wearing old-fashioned Dutch clothes and carrying a barrel of liquor. He motions to Rip to help him carry the barrel". Ushbu jumladagi "a little man wearing old-fashioned Dutch clothes and carrying a barrel of liquor", hamda The men are playing nine pins, which creates a noise like thunder in the surrounding mountains¹¹ namunasida mustamlaka davridagi muhit davrga hos kiyim, odat va muhit asnosida oydinlashadi. Yuqoridagi matn tarjimasiga batafsil nazar solganimizda ham bu majozni kuzatish mumkin. (Kuz kunlarining birida Rip iti Bo'ri bilan tog'larga boradi. U kimdir uning ismini qichqirayotganini eshitadi va orqasiga o'girilib, eski

⁹ Вашингтон Ирвинг. Новеллы. – Москва: «Правда», 1985. – С. 51–61.

¹⁰ Гёте И.В. Западно-восточный диван. – Москва: «Наука», 1988. – С. 223.

¹¹ John Quidor. Depiction of Rip Van Winkle. Housed at Art Institute of Chicago. – 1829. – P. 18. https://en.wikipedia.org/wiki/The_Sketch_Book_of_Geoffrey_Crayon,_Gent.

moda golland kiyimlarini kiygan va bir bochkada spirtli ichimlik ko'tarib yurgan kichkina odamni ko'rdi. U Ripga barrelni ko'tarishda yordam berish uchun ishora qiladi). (Tarjima bizniki – K.A.Fayziyeva).

Romantizm adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri asar syujetida fantaziya, ajoyib-g'aroyib voqealarning real voqealarga aralashib ketishidir. Antik adabiyotda Arastu (Aristotel) bu qoidani barcha badiiy asarlarga taalluqli deb biladi. "Shoirning vazifasi haqiqatan bo'lib o'tgan voqea haqida emas, balki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, demak, bo'lishi zarur bo'lgan voqea haqida so'zlash (yozish)dir. Zero, tarixchi va shoir biri-biridan nazmda, boshqasi esa nasrda yozishi bilan farqlanmaydi. Tarixchi va shoir shu bilan farqlanadiki, ularning biri haqiqatdan bo'lgan, ikkinchisi esa bo'lishi mumkin bo'lgan voqea haqida so'zlaydi (yozadi)".¹²

Vashington Irving "Al-Hamro" turkumidagi asarlaridan "Uch go'zal malika rivoyati" ("Legend of the Three Beautiful Princesses")da quyidagi sharq madaniyati bilan bog'liq jihatlarni ko'rish mumkin: "In old times there reigned a Moorish king in Granada, whose name was Mohamed, to which his subjects added the appellation of El Hayzari, or "The Lefthanded".¹³ Jumladan, (Qadimda Granadada Mavriy podshosi hukmronlik qilgan, uning ismi Muhammad edi, uning qo'l ostidagilar unga El-Xayzari yoki "Chapqo'l" nomini qo'yishgan.) (Tarjima bizniki – K.A.Fayziyeva).

Vashington Irving "Al-Hamro" turkumidagi "Shahzoda Ahmad al-Komil afsonasi" ("Legend of Prince Ahmed al-Kamel") yoki "Ishq qalandari" ("The Pilgrim of Love") nomli badiiy-falsafiy asarida sharqona ishq falsafasini o'zi bilganicha talqin etadi. Masalan, "The astrologers countenanced them in their foresight, predicting every thing in his favor that could make a perfect prince and a prosperous sovereign. One cloud only rested upon his destiny, and even that was of a roseate hue: he would be of an amorous temperament, and run great perils from the tender passion".¹⁴ (Ya'ni, Munajjimlar bashoratlarini aytishdi, uni ideal shahzoda va gullab-yashnab tarbiya qilishlari mumkin bo'lgan hamma narsani uning foydasiga bashorat qilishdi. Bitta bulut uning taqdiriga hafla turardi, hattoki bu atirgul rangda edi: u ishqiboz xarakterga ega bo'ladi va nozik ehtiros tufayli katta xavf tug'diradi.) (Tarjima bizniki – K.A.Fayziyeva). Amerika romantizm adabiyotining nodir asarlaridan biri bo'lgan bu asarida V.Irving iste'dodining ko'p qirralari: til boyligi, rangin va shiradorligi, syujetning hayotiyliigi va xayoliyligi, sharqona ilm-ma'rifatdan xabardorligi ko'rinadi. Asar syujetida Granada sultoni yakka, yolg'iz o'g'li, shahzoda Ahmadni bashoratchilar aytgan ishq, sevgi keltiradigan falokatlaridan asrash uchun Al-Hamro qasridan yuqoriroqda, tog' etagida Xeneralife (Xorun Xalifi) qasrini quradi. Bu qasr bog'lari va gulzorlarida sayr qiladi va Misr piramidalari ichidagi sirli bitiklarni va boshqa bilimlarni o'rganib kelgan kekxa muallimi-ustozidan juda ko'p fanlarni o'rganib olgani uchun shahzoda

¹² Арасту. Поэтика. – Т. 2004. – С. 29.

¹³ Washington Irving. "The Alhambra". – 1832. – P. 180. <https://www.andalucia.com/cities/granada/tales-of-the-alhambra.htm>.

¹⁴ Washington Irving. "The Alhambra". – 1832. – P. 133. <https://www.andalucia.com/cities/granada/tales-of-the-alhambra.htm>.

Ahmadning ismiga al-Komil sifatini qo‘shib aytadi.¹⁵ Ustozi shahzoda Ahmadga zerikmasligi uchun qushlarning tilini ham o‘rgatadi. Shahzoda Ahmad Lochin, Boyqush, Ko‘rshapalak, Kabutar, Qaldirg‘och kabi qushlar bilan do‘stlashib suhbatlashadi.

Novella qahramonlaridan yana o‘tkir xarakterli, ashaddiy poraxo‘r, tamagir, ochko‘z va zolim kishilarning alkald-hokim, algvasel-mirshab, politsiyachi, chaqimchi sartarosh asar syujetini harakatga keltiradi. Novella syujetida bu uch shaxsning tashqi qiyofasi ham, ichki, ma‘naviy qiyofasi ham real hayotdagi kabi aniq chiziladi. Adib chaqimchi sartarosh haqida nafrat bilan bunday yozadi: “Baxtga qarshi suv sotuvchi Perexilning uyi qarshisida yangiliklarni bilishga va tarqatishga qiziquvchi, dunyodagi barcha xabarchilarning ashaddiysi, Seviliya sartaroshidan ham xushomadgo‘ylikda qolishmaydigan, oyoqlari o‘rgimchaknikiday, ayyor, makkor, mug‘ombir sartarosh Pedriyo yashar edi. U kechasi bilan uxlamay, suv sotuvchi Perexil qandaydir yukni eshagiga ortib, Xenil daryosi sohiliga ko‘mib qaytganini bilib oldi va erta tongda yangilikni aytish uchun issiq suvli tog‘ora, sovun, ustarani olib, alkald-hokimning uyiga yugurdi. U hokimning soqolini sovun bilan yumshatib, yangilikni ham zavq bilan ayta boshladi:

– Dunyoda g‘alati ishlar bo‘lganiga hayronman. Bir kechaning o‘zida o‘g‘rilik, qotillik, o‘likni ko‘mish bo‘lsa-ya!¹⁶

Vashington Irving “Al-Hamro” turkumidagi “Mavrning vasiyati afsonasi” (“The Legend of the Moor’s Legacy”) asari syujetida ba‘zi mantiqsizliklarga ham yo‘l qo‘yadi. Granada shahrida arab yozuvidagi talisman-tilsimni o‘qishni biladigan, yana bir mavr-arab borligini yer ostidagi buloq, chashma oldida og‘ir kasallikka uchragan mavr-arab bilmasmidi? Yoki u yashirin xazinasini o‘z millatdoshi bo‘lgan mavrga qoldirmay yoki bunga imkon topolmay, kambag‘al, serfarzand, yer osti bulog‘i, chashmasidan suv tashib sotuvchi ispan mehnatkashiga yordam berishni o‘ylaganmi?¹⁷ Yozuvchi asar syujetini rivojlantirib, poyoniga yetkazuvchi ikkinchi mavrdan foydalanib, u bilan yashirin xazinani topsalar, bo‘lishuvga rozi bo‘lishi voqea mantig‘iga muvofiq keladi.

Vashington Irving “Al-Hamro” (“Qizil qasr”) turkumidagi novellalari, “Shahzoda Ahmad al-Komil afsonasi” (“Legend of Prince Ahmed al-Kamel”) yoki “Ishq qalandari” (“The Pilgrim of Love”), “Al-Hamro guli rivoyati” (Legend of the Rose of the Alhambra) yoki “Lochin tutgan soqchi yigit” (A guard boy holding a falcon), “Mavrning vasiyati afsonasi” (“The Legend of the Moor’s Legacy”), “Komendant Mango va askar rivoyati”, (“Governor Manco and the Soldier”), “Tosh hovlining siri” (“The Secret of the Stone Yard”) asarlari bilan Amerikada va Yevropada shon-shuhrat qozondi. Rossiyada A.V.Jukovskiy, A.S.Pushkin kabi daho shoirlar Vashington Irving asarlaridan ilhomlanib, balladalar va poemalar yozdilar. Fransiyada romantizm adabiyoti yetakchilaridan Fransua Shatobrian “Abenserrahlarning so‘ngisi”¹⁸ rivoyatida ispan qizi va Ibn Sirojlar sulolasining

¹⁵ Вашингтон Ирвинг. «Легенда о принце Ахмеда Аль Камель, или Паломник любви» Новеллы. – Москва, 1985. – С. 289–306.

¹⁶ O‘sha joydan: – С. 336.

¹⁷ Вашингтон Ирвинг. «Завещание маври». Новеллы. – Москва, 1985. – С. 341.

¹⁸ История американской литературы. Часть I. – Москва: «Просвещение», 1971. – С. 94.

so‘ngi vakili bo‘lgan arab shahzodasining diniy e‘tiqodlarining kelishmasligi sababli sevgisi fojiali tugashi tasvirlanadi.

Vashington Irving Ispaniyada IX-X-asrlarda arablar hukmronlik qilgan davrda xristianlar bilan musulmonlar tinch-totuv yashab, ajoyib arxitektura, falsafa, adab fanlari (tarix, husnixat, musiqa, she‘riyat) meditsina, astronomiya, ximiya va boshqa fanlar rivojlangani haqidagi manbalar bilan tanishdi. Atoqli sharqshunos, filolog olimlar aniqlashicha, antik davr mutafakkirlari Galen (Jelinus), Ptolemey (Batlimus), Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu) asarlari yo‘qolib ketganida bular va suryoniy tilidan xristian xalqlarining tiliga qayta tarjima qilingan.¹⁹ Bu asarlarning nusxalari Ispaniya davlat arxivlarida va iezuitlarning kollejlarda saqlanib qolgan. Iezuitlar Fransiyadagi masonlar kabi, iste‘dodli yoshlarga bilim berib, baland martabalarga yetkazadi va ular topgan mol-mulklarni o‘zlashtirib oladilar. Lekin, lezuitlar o‘z farmoniga bo‘ysunmagan a‘zolarini shafqatsiz jazolab, jinnixonalarga tiqadilar va yo‘q qiladilar. Iste‘dodli fransuz adibi Ejen Syu “Agasfer” romanida shu haqida yozadi.²⁰

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Johiliya davri va Vashington Irving “Muhammad hayoti” kitobida tarixiylik va badiiylik”** deb nomlangan, uchinchi bob uch fasldan iborat bo‘lib, unda Vashington Irving arablar hayotining johiliya davri haqida, “Muhammad hayoti” romanida tarixiylik va “Muhammad hayoti” romanida badiiylik tahlili kuzatiladi. Vashington Irving va uning islom madaniyatiga munosabati Yevropa ma‘rifatchilarining qarashlaridan farq qilish sabablari tadqiq etiladi.

V.Irving “Muhammad hayoti” asarida ham tarixchi, ham yozuvchi sifatida ish ko‘radi. O‘sha vaqtlarda “Qur‘on” va olti sahih hadis to‘plamlari (imom Muhammad al-Buxoriy, imom Muslim ibn Hajjoj, imom Ahmad Xanbal, at-Termiziy, Doromiy-Samarqandiy, Sijistoniy) Tabariy, Qisoiy, Navoiy yozgan “Payg‘ambarlar tarixi” ingliz, fransuz, olmon tillariga tarjima qilingan edi. V.Irving o‘z asarini juda uzoqdan boshlaydi. Arablar o‘z naslini Nuhning o‘g‘li Somga ulaydi.²¹

